

**“MAKTABGACHA TA'LIM
– MAKTAB – OLIY TA'LIM”
KONSEPSIYASI: MUAMMO,
YECHIMLAR VA ISTIQBOLLAR
XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMANI
MATERIALLARI**

2022-yil, 9-aprel

Buxoro – 2022

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
MAKTABGACHA VA BOSHLANG‘ICH TA’LIM FAKULTETI
BOSHLANG‘ICH TA’LIM METODIKASI KAFEDRASI**

**MAKTABGACHA TA’LIM – MAKTAB – OLIY
TA’LIM” KONSEPSIYASI: MUAMMO, YECHIMLAR VA
ISTIQBOLLAR**

XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMANI

MATERIALLARI

2022-yil, 9-aprel

Buxoro – 2022

Mir Alisher bobomlardan
 Meros bo‘lib qolgan tilim.
 Bobur Mirzo she’rlaridan
 Rang va qiyos olgan tilim.
 Shoh Mashrabni bulbuldayin,
 Sayratgan ham ona tilim.
 Mirtemirni shoir qilib,
 Yayratgan ham ona tilim.
 Shunday tildan tonar bo‘lsam,
 Qiyma-qiyama bo‘lsin tilim
 Alla bo‘lib jaranglagan,
 Ona tilim-jonu dilim.
 Gulla, yashna el tilida,
 Nur sochaver jon-u dilim.
 Ne-ne buyuk bobolarim
 Jaranglatib aytgan so‘z.
 Har so‘zingda bir hikmat bor,
 Hech qachon tegmasin ko‘z.

She’rda keltirilgan satrlarning ma’nosи o‘quvchilarga ochib beriladi. Amir Temur bobomiz ham jahon bo‘ylab qancha yurtlarni egallab, o‘z ona tilimizni dovrug‘ini dunyoga tanitgan. Mir Alisher bobomiz ham shu tilda ijod qilib, u o‘zining asarlari orqali millatni dunyoga tanitgan. Bobur Mirzo she’rlarida ham so‘zning qay darajada qiyoslanishi ranglanishi ham keltirib o‘tilgan. Shoh Mashrab ham o‘zining shohligi yodidan chiqib uning ijod qilgani bulbulning sayrashiga qiyos etilgan. O‘zbek shoirlaridan Mirtemirni ham shoir darajasiga olib chiqgan o‘zbek tili ekanligi agar shu tilde gaplashmasam tilining qiyma-qiyama bo‘lishini ham shoir o‘z misralarida keltirib o‘tgan. Biz dunyoga kelgan kunimizdanoq ona tilimizda onamizning bizni erkalashini, alla aytishini ilk bor eshitamiz. Bu so‘zlar bizning qulog‘imizdan kirib jonimizga singib unga mehr oshib boraveradi. Tilimiz biz ulg‘ayib o‘sganimiz sayin tilimiz ham kengayib, ulug‘lanib el tilida, ellar tilida quyosh kabi nur sochib yashnaversin. Ne-ne buyuk bobolarim shu tilde so‘zlab, ijod qilib, endi bizlar ham shu tilda ijod qilib, har bir so‘zdagi hikmatni mag‘zini chaqib yurtimizga foydasi tegadigan inson bo‘lib kamol topishimizda ona tilimizning xizmati kattadir.

Foydalilanilgan adabiyotlar:

1. Umumiy o‘rtta ta’lim maktablarning o‘qish kitobi 3-sinf uchun darslik “O‘qituvchi” nashriyot-matbaa ijodiy uyi Toshkent-2019
2. Karima Qosimova, Safo Matchonov, Xolida G‘ulomova, Sharofat Yo‘ldosheva, Sharofjon Sariyev Ona tili o‘qitish metodikasi . Darslik. Toshkent “Nosir” nashriyoti-2009
3. Internet tarmoqlaridan

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA FANLARNI O‘ZARO INTEGRATSIYALASHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

**Yarashov Mardon Jobir o‘g‘li
BuxDU o‘qituvchisi**

Annotatsiya: Mazkur maqolada dars jarayonida fanlarni o‘zaro integratsiyalash samarasi va foydali jihatlari bayon etilgan. Nafaqat bir nechta fanlarni balki fanlar ichida mavzularni o‘zaro bog‘lash ham yuqori samara va o‘quvchilarni darsga qiziqirishga turki bo‘lishi haqida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar: integratsiya, ta’lim, samara dars, metod, amaliy, kurs, qiziqish, didaktik, konstruksiya.

Annotation: This article describes the integration and usefulness of subjects in the classroom. Not only several disciplines but also interdisciplinary interrelationships are highly effective and motivate students to take lessons.

Keywords: integration, education, effective lesson, method, practice, course, action, didactic, construction.

Аннотация: В данной статье описывается интеграция и полезность предметов на уроках. Не только несколько дисциплин, но и междисциплинарные взаимосвязи являются высокоэффективными и мотивируют студентов к занятиям.

Ключевые слова: интеграция, обучение, эффективный урок, метод, практика, курс, действие, дидактика, построение.

Boshlang‘ich ta’limni integratsiyalash muammosi ham nazariy, ham amaliy jihatdan muhim va dolzarbdir. Boshlang‘ich ta’limni integratsiyalish masalasiga keyingi paytda bir qancha yondashishlar bo‘ldi: darsni ikki fan o‘qituvchisi olib borishi yoki ikki fanni bir darsga birlashtirib, uni bir o‘qituvchi tomonidan o‘tilishidan, integratsiyalangan kurslar taslikil etish, boshlang‘ich ta’lim mazmunini tubdan o‘zgartirishgacha. Bunga maktab ham, didaktika va metodika ham tayyor emas.

Keyingi paytda maktab ta’limini integratsiyalash to‘g‘risida ko‘p so‘z yuritilmoxda. Olimlar va amaliyotchi o‘qituvchilar bolalarda qanday qilib dunyo to‘g‘risida yaxlit tushuncha hosil qihsh va turli fanlar bo‘yicha bilimlarni yaqinlashtirish uchun bir butun dasturni tuzish to‘g‘risida bosh qotirishyapti. Bir-biriga yaqin bo‘lgan fanlarni birlashtiruvchi kurslar tashkil etish harakatlari bo‘lmoqda. Masalan, matematika va konstruksiyalash, tasviriy san‘at va badiiy mehnat. Bu kurslarning samaradorligi to‘g‘risida xorijlik pedagoglarning ko‘p yillik ishlari natijalarini bo‘yicha baholash mumkin. Zero, integratsiyalangan kurslar chet el maktablari uchun odatiy holga aylangan.

Chet el tajribasi bilan tanishish shuni ko‘rsatdiki, tabiat va jamiyat haqidagi bilimlarni rivojlantirish uchun asos bo‘luvchi integratsiyalangan fanlar ko‘pgina mamlakatlarning o‘quv dasturlariga kiritilgan. Bu ekologik yo‘nalishiga ega bo‘lgan integratsiyalangan fanlar jahon hamjamiyatida o‘quvchilarda atrof-muhitga javobgarlikni shakllantirishning asosiy vositasi ekanligi to‘g‘risida xabar beradi.

Integratsiyaning bunday usulidan to‘liqsiz va to‘liq o‘rta maktablarda qo‘llaniladi. AQSHdagi o‘rta maktablarning yuqori sinflarida fizika, kimyo, geografiya, geologiya, kristallografiya, tuproqshunoslik va shu kabilarni o‘z ichiga oluvchi «Yerni o‘rganish» fani kiritilgan. Chexiya, Slovakiyada ham shunday umumlashtiruvchi integratsiyalangan «Fuqoro tarbiyasi» deb nomlangan kurs yuqori sinflarda kiritilgan.

Boshlang‘ich ta’limda integratsiyani amalga oshiruvchi bo‘g‘in vazifasini o‘qituvchining o‘zi bajaradi. U bolalarning arifmetikaga, yozishga, tabiiy ko‘pgina boshlang‘ich tushunchalari va yana ko‘pgina narsalarga o‘rgatadi, o‘z kuch va imkoniyatlari darajasida bu ishni amalga oshiradi. Boshlang‘ich sinflarda bir o‘qituvchining dars berishini integratsiyaning bir usuli, deb hisoblasak ham bo‘ladi.

Y.M.Kolegin va O.L.Aleksinko integratsiyaning salbiy omillarini quyidagicha ko‘rsatib berishadi:

- o‘quv predmetlarining chegaralangan soni — olinayotgan kalla hajmdagi bilimlarning mazmuni olamning haqiqiy ko‘rinishini, qismlarining o‘zaro bog‘liqligini aks ettirish bilan to‘ldirish mumkin;
- juda muhim bo‘lgan o‘qish, yozish va sanoq ko‘nikmalarini shakllantirish zarurati.

Robert Karlosning aytishicha, boshlang‘ich maktab faqat o‘qish, yozish va sanashni o‘rgatibgina qolmasdan, bundan ham muhimroq va kattaroq masalani amalga oshirishi kerak. Chunki butun bir bola shakllantirish davrida uning intellektual faolligini rag‘batlantirish, tabiiy qobiliyati singari uning keyingi muvaffaqiyatlari uchun juda muhimdir.

Inlegratsiyalangan kurslarni shu yoshdagagi bolalarga tushunarli va sodda bo‘lishi uchun bayon qihshning qiyinligi. Bu omilni bartaraf qilishning yo‘llari amaliyotda tekshirilgan eng ma‘qul uslublarni ishlab chiqarishda hamda o‘qituvchilar tayyorlashning maxsus tizimidadir.

Ta’limni integratsiyalash fikri xalq ta’limida tabaqlashtirish va individuallashtirish bilan birga muhokama qilina boshlandi. Agar kichik maktab ta’limini tabaqlashtirish asosida kitob, darslik va boshqa adabiyotlar bilan mustaqil ishlashga tayyorgarlik darajasi hamda kichik maktab yoshida qiziqishlarni faol shakllanti-rishni taqozo etsa, integratsiyaning asosi qilib, turli fanlarni o‘rganish obyektlari bo‘lgan ba’zi umumiy tushunchalarni chuqurlashtirish, aniqlashtirish va kengaytirish mumkin.

Ta’limni integratsiyalashning asosiy maqsadi — boshlang‘ich maktabdayoq tabiat va jamiyat haqida yaxshi tasavvur asoslarini qo‘yishi va ularning rivojlanishi qonunlariga o‘z munosabatini shakllantirishdir. Mana shuning uchun kichik maktab o‘quvchisi predmet yoki voqealik hodisalarning bir necha tomonidan ko‘rish muhimdir: mantiqiy va emotsiyal Tomondan, badiiy asarda va ilmiy ommabop maqolada, biolog, so‘z ustasi, rassom, musiqachi nuqtayi nazardan va boshqalar.

Asosiy fanlarni o‘zlashtirish va olamdagagi bor narsalar qonuniyatlarini tushunishda predmetlar ichidagi va predmetlararo aloqalarini o‘raatish ta’limni integratsiyalashga yondashuvning metodik asosidir. Bunga turh darslar tushunchalariga ko‘p marta qaytish, ularni chuqurlashtirish va boyitish, shu yoshga tushunarli bo‘lgan muhim belgilarni aniqlash orqali erishish mumkin. Shunday qilib, yaxshi shakllangan tuzihsh va o‘tkazish tartibiga ega bo‘lgan, tarkibiga shu o‘quv predmetiga tegishli bo‘lgan tushunchalar guruhi kiritilgan har qanday dars integratsiyaga asos qilib olinishi mumkin.

Integratsiyalangan darslar. Boshdan integratsiyalangan kurs bu - sinfdan tashqari o‘qish. Bu yerda yaxlit jarayon kechadi:

- kitob o‘qish asbobi sifatida o‘qish darslarida olgan o‘qish ko‘rikmalarini takomillashtirish;
- matn ustida ishslash;
- suhbatdoshlar doirasini tanlash kabi kitoblarni tanlash.

Malematika ham integratsiyalangan kurs — arifmetik materialni o‘zlashtirishga imkon beruvchi arifmetika, algebra va geometriya elementlari, shu bilan birga algebra va geometriya, mehnat ta’limi asoslarini o‘rgatishga tayyorgarlik. Boshidan integratsiyalangan kurs — tabiatshunoslik (tabiatshunoslik asosları). Boshidan integratsiyalangan yuqoridagi kurslardan tashqari quyidagi fanlarning birikishi mumkin: o‘qish-rus tili, o‘qish-tabiatshunoslik, o‘qish-tasviriy san’at, o‘qish-musiqa, tabiatshunoslik-matematika, tabiatshunoslik-mehnat ta’limi, matematika-mehnat ta’limi, matematika-jismoniy tarbiya.

Tekshiruvlar ko‘rsatishicha, integral yondashuvni amalga oshirishga yordam beruvchi usul va vositalarga:

1. Evristik suhbatlar;
2. Umumiy suhbatlar; ekskursiyalar;
3. Ta’limning ko‘rgazmali metodlari;
4. Mustaqil ishlar;
5. O‘qish, matematika darslarida og‘zaki rasm chizish;
6. Imo-ishorali ko‘rinishlar (pantomimalar);
7. Tabiatshunoslik darslarida tabiat tasvirlarini ifodali o‘qish;
Ta’limga bog‘liq «integratsiya» tushunchasi ikki ma’noga ega:
 1. O‘quvchida atrofidagi olam to‘g‘risida yaxshi tasavvur hosil qilish (bu yerda integratsiya — ta’lim maqsadi sifatida ko‘riladi).
 2. Predmetli bilimlarni yaqinlashtirish uchun umumiy platformani topish (bu yerda, integratsiya — ta’lim vositasi).

Integratsiya — predmetli bilimlar chegarasida yangi tasavvurlarni qabul qilish vositasi. Birinchi navbatda tabaqlashtirilgan bilimlar orasida bilmagan joylarni to‘ldirish, ular orasidagi aloqalarni o‘rnatish lozim.

Bu vazifa mumkin bo‘lgan muqobillarni taqqoslash va boshqa mavjud imkoniyatlarni baholash yo‘li bilan hal etiladi. Muvofiqlashtirish deganda pedagogika tizimi qaysi maqsadlar uchun tashkil etilgan bo‘lsa, o‘sha maqsadlarga mos munosiblik darajasini aniqlash mumkin. Bir sharoit uchun erishilgan muvofiqlik hech qachon boshqa sharoitlarga mos kelmaydi. Shuning uchun muvofiqiashtirish tushunchasi aniqlikni talab qiladi.

Oldin ko‘rsatib o‘tilganidek, kerakli natijalarga o‘qituvchi va o‘quvchilarni haddan tashqari ish bilan band etish yo‘llari orqali ershish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jobirovich Y. M. The Role Of Digital Technologies In Reform Of The Education System //The American Journal of Social Science and Education Innovations. – 2021. – T. 3. – №. 04. – C. 461-
2. Ярашов М. THE IMPORTANCE OF USING DIGITAL TECHNOLOGY IN PRIMARY SCHOOL MATHEMATICS EDUCATION //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2020. – Т. 10. – №. 9.
3. Ярашов М. ТА’ЛИМ ТИЗИМДА RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING O‘RNI //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – Т. 5. – №. 5.
4. Ярашов М. BOSHLANG‘ICH SINF MATEMATIKA TA’LIMNI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ORQALI IJODIY TASHKIL ETISH JARAYONI //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – Т. 5. – №. 5.
5. YARASHOV M. BOSHLANG‘ICH TA’LIM JARAYONIGA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING TADBIQ ETISH METODIKASI //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – Т. 8. – №. 8.
6. YARASHOV M. BOSHLANG ‘ICH SINF MATEMATIKA TA’LIMINI IJODIY TASHKIL ETISHDA TA’LIM TAMOYILLARINING O ‘RNI //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ. – 2020. – Т. 1. – №. 1.
7. Jobirovich Y. M. Advantages of the Introduction of Digital Technologies into the Educational Process //Pindus Journal of Culture, Literature, and ELT. – 2021. – Т. 7. – С. 17-20.
8. Yunus Y. S. Features of Logical Thinking of Junior Schoolchildren //Middle European Scientific Bulletin. – 2021. – Т. 10. – №. 1.
9. Olloqova M. O. Intensive education and linguistic competence in mother tongue //ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL. – 2021. – Т. 11. – №. 1. – С. 580-587.
10. Xoliqulovich J. R. Using anthropometric units in " Esdaliklar" by Sadriddin Ayniy //EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION. – 2022. – Т. 2. – №. 2. – С. 295-298.

Yarashov Mardon. BOSHLANG'ICH SINFLARDA FANLARNI O'ZARO INTEGRATSIYALASHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	313
Vaxidova Dilrabo Taxirovna. BOLALARNI MAKTAB TA'LIMIGA TAYYORLASH SHAKLLARI VA METODLARI.....	316
Iroda Abdiqodirova Norqul qizi. XALQ ERTAKLARI O'QUVCHILARNI AXLOQIY TARBIYALASHNING SAMARALI VOSITASI SIFATIDA.....	317
Y.U.Nurova. O'ZBEK XALQ PAREMALARDA SUYUQ TAOM NOMLARINING ETNOLINGVISTIK TADQIQI	319
Y.U.Nurova. SUYUQ OVQAT NOMLARI ISHTIROK ETGAN PAREMALARNING ETNOLINGVISTIK TADQIQI	321
Zokirova Dildora, Saidova Rayxonoy. BOSHLANG'ICH SINF O'QISH DARSLARIDA BADIY ASAR VA BADIY MATNNING O'RNI.....	323
Zoyirova Dildora. BOSHLANG'ICH SINFLARDA MA'RIFIY SHE'RLAR O'QITISHNING NAZARIY ASOSLARI VA INNOVATSION PEDOGOGIK USULLARI	324
M.M.Nigmatova, Z.O'.Nematova. TA'LIM MUASSASALARI O'RTASIDA UZVIYLIK TIZIMINI YARATISH MEXANIZMLARI.....	326
N.G. Dilova. "UCHINCHI RENESSANS" DAVRIDA TA'LIMNING UZLUKSIZLIGINI TA'MINLASHDA SHARQ ALLOMALARI MEROSIDAN FOYDALANISH.....	328
Gulnoz Qosimovna Hasanova, T.N.G'iyazova. MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARIDA OILA HAMKORLIGINING SAMARADORLIGI.....	330
Saidova Mokhinur Murodovna. CULTURAL MEANINGS AND VALUES IN KOREAN FAIRY TALES.....	331
Nigora Adizova Baxtiyorovna, Ismigul Hayotova. BOSHLANG'ICH SINFLARDA ERTAK USTIDA ISHLASH TEXNIKASI.....	333
Malika Xaydarova. BOSHLANG'ICH TA'LIM JARAYONIGA INDIVIDUAL YONDASHUVNI TATBIQ ETISH YO'LLARI.....	335
Хайдарова М.Д., Юлдашев Б.Н. ИНТЕГРАЦИЯ УРОКОВ ТЕХНОЛОГИИ С ДРУГИМИ ПРЕДМЕТАМИ	336
N.Jo'rayeva. ONA TILI TA'LIMIDA O'QITUVCHI FAOLIYATINI MODELLASHTIRISH	338
Mustafoyeva M.Sh. KICHIK MAKTAB YOSHI DAVRIDA BILISH JARAYONLARINING RIVOJLANISHI.....	340
N.Jo'rayeva. BOSHLANG'ICH SINF ONA TILI TA'LIMIDA O'QUVCHILARNING IJODIY FAOLIYATINI LOYIHALASHTIRISH	342
Asqarova Dilorom Qurbanovna. BOSHBOSSHLang'ICH MAKTABLEARDA O'QITISH VA TARBIYALASH INTEGRATSIYASIGA ZAMONAVIY YONDASHUV	343
Лутфетдинова Раъно Хуснетдиновна. ПРОДУКТИВ ЎҚИШ ВОСИТАСИДА БОШЛАНФИЧ СИНФ ЎҚУВЧИЛАРИДА ЁЗМА НУТҚНИ ШАКЛАНТИРИШ УСУЛЛАРИ	345
Хўжамбердиева Шахноза Кўпайсиновна. МАКTABGACHA TA'ELIMDA ЎҚУВ-МЕТОДИК ТА'МНИТОТИНИ ТАКОЛМИЛЛАШТИРИШГА ЗАМОНАВИЙ ЁНДАШУВ (Э.ВОХИДОВ ИЖОДИНИ ЎРГАТИШ МИСОЛИДА)	348
Y.A.Po'lotova. BOSHLANG'ICH SINF ONA TILI VA O'QISH DARSLARIDA AXBOROT- RESURSLAR INTEGRATSIYASINI TA'MINLASH-METODIK MUAMMO SIFATIDA	352
H.G'.Jumayeva. BIRINCHI SINFDA ILMIY-OMMABOP VA BADIY MATNLARNI O'QITISH.....	355
Kasimov Asror Abdulloyevich. DIDAKTIK O'YINLARNING TA'LIM VA TARBIYADA TUTGAN O'RNI.....	356
3-SHO'BA. MAKTABGACHA TA'LIM KONSEPSIYASIDA XALQARO VA XORIJ TAJRIBALARIDAN FOYDALANISH.....	359
Abdullayeva Feruza Nurillayevna. TA'LIM TIZIMI SIFATINI OSHIRISHDA PISA VA TIMSS KABI XALQARO TADQIQOTLARNING ROLI.....	359
Djalolova Dilafruz Fattoxovna. PEDAGOGIK FAOLIYATIGA KREATIV YONDASHUV	361
Odilova Umida Husan Qizi. MAKTABGACHA TA'LIM KONSEPSIYASINING JAHON DAVLATLARI MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI TA'LIM – TARBIYA JARAYONINI O'RGANISHDAGI AHAMIYATI.....	363
Rustamova Gavhar Bahron qizi, Sharopova Gulnoza Raxmatilloyevna. PIRLS XALQARO BAHOLASH TIZIMIDA MATNLAR UCHUN BELGILANGAN MEZONLAR	364